

“BIR ZIYOLI – BIR MAHALLAGA MA’NAVIY HOMIY” TAMOIYILI AMALDA



“BIR ZIYOLI – BIR MAHALLAGA MA’NAVIY HOMIY” TAMOIYILI AMALDA

Ma’lumki, 2021 yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nomlanib, bu borada davlat dasturi qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo’yicha o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida O’zbekistonda har bir mahallaga “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy” tamoyili asosida professor-o’qituvchi va taniqli ziyolilar biriktirildi. Jumladan, Termiz shahridagi barcha mahallalarga Termiz davlat universiteti va Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filialining professor-o’qituvchilari ma’naviy homiy etib biriktirilgan. Bugun, Termiz shahar hokimligida o’tkazilgan yig’ilishda Termiz davlat universiteti va shahardagi mahallalar bilan hamkorlikda bajarilishi lozim bo’lgan vazifalar va kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar

belgilab olindi.